

ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL  
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ  
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL

# Til va adabiyot.uz




«Til va adabiyot – Преподавание языка и литературе – Language and literature teaching» (e-mail:tilvaadabiyotuz@gmail.com) <https://oak.uz/pages/4802>

## 18-NOYABR O'ZBEKİSTON RESPUBLİKASI DAVLAT BAYROĞ'I QABUL QILINGAN KUN

Abdulla ORIPOV,  
O'zbekiston Qahramoni

O'ZBEKİSTON  
DAVLATI



*O'zbekiston bayrog'i ko'tarildi chinakam,  
Ushbu kunni ayting-chi, qay birimiz kutmadik.  
Zarur bo'lgan chog'da goh dor tagida turib ham,  
Qay birimiz tarixning sinovidan o'tmadik.*

*Dong'il safarga chiqdi endi hur O'zbekiston,  
Kimgadir oyoqosti, kimga u osmon bo'ldi.  
Shukrkim, o'z-o'zini tanidi keksa jahon,  
Ya'ni o'zbek davlatin jumlai jahon bildi.*

*Ne-ne kamshituvlarni ko'rgan shu boshim bilan  
Ona xalqim, qoshingda tizza bukib turibman.  
O'zbekcha gapirganda, bir chuqum oshim bilan  
Sadaqai baxting deb borim to'kib turibman.*

*Garchi doim ungandir gulchechaklar bog'imda,  
Temur va Navoiyi eslaymiz takror-takror.  
Men-ku uzoq yasharman, lekin ketar chog'imda  
Tepamda egilajak o'z tug'im – bayrog'im bor!*

*Nasib etmish bu kunlar, taralsin yangroq unlar,  
Do'stlar bilan yonma-yon qutlaylik bu ayyomni.  
Iloyo boshimizga kelmasin qaro kunlar,  
O'zbegin, deb ko'taring, do'stlarim, oltin jomni.*

<b>Sayyora Abdurashidova.</b> The contibution of some foreign prefixoids in word formation.....	64
<b>Ug'iloy Bolbekova.</b> The role of innovative technologies in teaching english .....	66
<b>Muhayyo Mo'minova.</b> The intericate tapestry of linguistic culture: a comparative analysis of english and uzbek.....	69
<b>Nigina Akhmedova.</b> Authentic materials and their features of the formation of sociocultural competence in theaching and learning .....	71
<b>Diyora Madjidova.</b> Interactive methods and modern approach in organizing the communicative english lesson .....	73
<b>Yulduz Sultonova.</b> Features of translation of english zoocomponent phraseological units into uzbek .....	75
<b>Muborak Sagatova.</b> The analysis of conceptual metaphor in media advertisement.....	76
<b>Sitora Xasanova.</b> The interplay od language and culture in literary concepts: a linguo-cultural perspective .....	78
<b>Firuza Khusainova.</b> The role of lifelong lerning for people of the third age .....	80
<b>Diana Abduramanova.</b> Lexical innovation and meta-semantic analysis: the influence of fiction on the creation and adaptation of invented words in a metalinguistic context .....	84
<b>Nodiraxon Karimova.</b> Наш язык, наша культура .....	88
<b>Diana Ruzmetova.</b> Интеграция искусств и креативных методов в преподавание английского языка: разработка мультимодальных уроков для стимуляции языкового развития .....	90
<b>D.A.Ubaydova.</b> Ги Де Мопассан - великий романист французской литературы .....	93
<b>Shaxnoza Tursunova.</b> Проблема изучения неполных предложений в языкоznании .....	96
<b>Muxiba Arabova.</b> Методика обучения русскому языку и культуре речи инофонов среднего и продвинутого этапов обучения по материалам аутентичных медиатекстов .....	98
<b>Mashxura Xafizova.</b> Эффективность применения игровой педагогической технологии в вузе .....	100
<b>Elyanora Xalikova.</b> Бухарские реалии в рассказе Омона Мухтара «Птицы и сны».....	102
<b>Farida Umarova.</b> Обозначение времени на часах. Распорядок дня.....	106
<b>S.S.Ibragimova.</b> Один автор подписывается более чем одним псевдонимом.....	110
<b>Otabek Yuldashev.</b> O'zbek shevalaridagi xalq maqollarining semantik tuzilishi va lingvistik-madaniy tasnifi.....	113
<b>Tahlil</b>	
<b>Umida Djalilova.</b> Tarjimada til va uning madaniy masalalari .....	116
<b>Sanobar Kamolova.</b> O'zbek antroponomalarining milliy-madaniy qirralari .....	118
<b>Xurshida Baratova.</b> "Boburnoma"da mehribon ona tasviri.....	120
<b>Surayyo Qurbanova.</b> O'zbek va ingliz tillarida "vaqt" zamon ko'satkichining qiyosiy tahlili.....	122
<b>Metodik tavsija</b>	
<b>Rayxona Tillayeva.</b> Adabiy darslarini noan'anaviy shakllarda tashkil etish usullari.....	126
<b>Saodat Kambarova, Karlygash Ashirkhanova.</b> Adabiyot darslarida "muallif nuqtayi nazari"ni o'rgatish tajribasidan .....	128
<b>R.X. Niyozmetova.</b> Adabiy matn va mustaqil fikrlash .....	130
<b>Gulnora Yaxyoyeva.</b> Nemis tili darslarida talabalarning ijodiy faoliyk xususiyatini takomillashtirish.....	132
<b>Mo'tabarxon Bahridinova.</b> Raqamli texnologiyalarning nemis tilini o'qitishdagি ahamiyati .....	134
<b>Tilshunoslik</b>	
<b>Malika Rajapova, Alijon Mamajonov.</b> Allegoriyaning tasavvufda ishlatalishi.....	137
<b>Nodirakhon Khatamova.</b> The intersection of language acquisition and global consciousness in esp education .....	139
<b>Bayramali Kilichev.</b> Buxoro toponimlarida rabot komponentining o'rni .....	141
<b>Rohila Suvonova.</b> Joy nomlari bilan bog'liq metonomiya.....	143
<b>Nurbek G'aniyev.</b> Qiziltepa tumani toponi miyasining lug'aviy asoslari .....	145
<b>Qodirjon Mo'ydinov.</b> Yuridik til leksikasining mavzuiy guruhlari.....	147
<b>Aziza Ayaqulova.</b> Tibbiyot sohasiga oid terminlarning qiyosiy tipologik tadqiqi.....	149
<b>Gulshoda Begimova.</b> Linguistic description of the lexical level and its learning status .....	152
<b>Nurbek Ayaqulov.</b> Muayyan sohaviy terminologik tizimlarda turkumlashtirish masalalari.....	154
<b>Mulohaza</b>	
<b>Arofatoy Muydinova.</b> O'zbek adabiyotida muvashshahlarga doir adabiy munozaralar.....	157
<b>Kichik tadqiqot</b>	
<b>Sarvinoz Rasulova.</b> Sabr va sadoqat saltanatining so'nmas malikasi Zulfiyaxonim .....	158
<b>Mavluda Mirzayeva.</b> Chet tili darslari jarayonida kasbga yo'naltirib o'qitish orqali talabalarning kommunikativ kompetensiyalarini takomillashtirish.....	160
<b>Mohidil Temirova.</b> Olmosh so'z turkumi haqida ba'zi mulohazalar.....	162
<b>Sh Bobojonov.</b> Ijodiy hamkorlik .....	165

Arofatoy MUYDINOVA,  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o'qituvchisi, f.f.b.f.d (PhD)

## O'ZBEK ADABIYOTIDA MUVASHSHAHLARGA DOIR ADABIY MUNOZARALAR

**Annotatsiya:** maqolada muvashshahchilik an'anasi va u bilan bog'liq adabiy munozaralar haqida so'z boradi. Ayrim ulamolarning ulug' shoirlar ijodiga nisbatan biryoqlama noxolis munosabatlari va bunga ularning asosli javoblarini yoritishga harakat qilingan.

**Kalit so'zlar:** *muvashshah, g'azal, muxammas, oyat, hadis, munozara, mahorat.*

**Annotation:** the article talks about the tradition of muvashshah and the literary discussions associated with it. Some scholars have tried to shed light on the one-sided biased attitudes towards the creations of the great poets and their justifiable responses to this.

**Keywords:** *muvashshah, gazal, muhammas, verse, hadiths, discussion, skill.*

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlari o'zbek adabiyotida muvashshahchilik an'anasi ommalashgan davr hisoblanadi. Feruz, Kamiy, Miskin, Haziniy, Muqimiyy, Muhyi, Zavqiy, Zoriy, Qoriy, Rojiy, Furqat kabi ulug' shoirlar muvashshahchilikda shuhurat qozonishgan. Ular yaratgan muvashshahlarni ilmiy asosda o'rganish adabiyot tarixining qorong'i jihatlarini yoritishda muayyan darajada xizmat qiladi. Maqsud Shayxzoda, Aziz Qayumov, Sharif Yusupov, Qo'ldosh Pardayev singari olimlarning bu mavzuga oid tadqiqotlari muvashshahning o'ziga xos xususiyatlarini yoritgani, unga doir munozaralarga oydinlik kiritgani jihatidan ahamiyatlidir.

Bu davrda muvashshahchilik an'anasi shu darajada ommalashganki, hatto, shoirlik va nazmchilik hunari muvashshahchilikdagi mahorat bilan o'lchangani manbalarda ta'kidlanadi [4,91-92]. Bu holning 1910-yillarda dastlab "Al- Isloh" jurnalida, keyin esa boshqa vaqtli nashrlarda ko'pgina munozaralarga sabab bo'lganligini adabiyotshunoslar tomonidan atroflicha o'rganilib, tahlil qilingan. Munozara jurnalning 1916-yilgi 11-sonida "O'rategali Mulla Bahriiddin tarafindin savollar" tashlanishi bilan boshlanadi [3,43]. Unda jamiyatda ro'y berayotgan katta ijtimoiy hodisalar zamon shoirlarining ishqiy va hajviy she'rlariga bog'liq talqin etiladi. Muallif matbuot nashrlarida chop etilayotgan an'anaviy adabiyotga xos oshiqona she'rlarni tanqid qiladi. Shundan keyin bu masala millat ziyorilari, ulamolar o'rtasida keng muhokama qilina boshlaydi. Toshkentlik Maqsudxo'ja mufti mazkur masala yuzasidan qizg'in bahsga kirishib, "Al-Isloh"ning bir necha sonlarida maqolalar chop ettirib, ... zamon shoirlarining ishqiy mavzudagi muvashshahlarini nazarda tutib, bu kabi she'rlarni axloqsizlik va tubanlik manbai sifatida talqin etadi... Maqsudxo'ja mufti butun xalqqa ishqiy va hajviy she'rlar yozish ham, unday she'rlarni o'qish ham gunoh degan fatvo beradi. Ana shunday davom etgan qizg'in bahsga shoir Zavqiy ham qo'shiladi. U Maqsudxo'ja muftiga javoban keskin fikr bildirib, "Ishtiboh" nomli maqolasi bilan chiqadi. Zavqiy Maqsudxo'ja mufti va Mulla Bahriiddinning ishqiy she'rlar haqidagi mulohaza-muhokamalarining noto'g'ri, fatvosining asossiz ekanligini aytib, munozaraga kirishadi. U muftiga oyat va hadislar asosida javob beradi. Ishqiy she'rlar bilan axloqsizlik o'rtasida farq borligini tushuntirmoqchi bo'ladi. U "musulmon kishining qilmishini tekshirmsandan turib, gunohkorlikda ayblash joiz emasdur" mazmunidagi hadisi sharifni keltirib, muftining fatvosini inkor etadi... Zavqiyning bu maqolasi ulamolarning jiddiy e'tiroziga sabab bo'ladi [3,43]. O'z chiqishlarida zamon shoirlari ijodini himoya qilgan Zavqiyga matbuot sahifalaridan joy bermay qo'yganlaridan so'ng esa bevosita xalq ommasiga, adabiyotning haqiqiy muxlisi ekanligini ko'rsatishga kirishadi. "Afandilar" she'ri ana shunday voqelik hosilasidir.

Munozara va bahslar "Al-Isloh" jurnalining bir necha sonlarida, shuningdek, "Oyna", "Sadoi Farg'ona", "Sadoi Turkiston" kabi nashrlarda ham davom etadi. Bu shoirlarga nisbatan tuhmat, biryoqlama xulosa-aybnomalar ekanligi, shubhasiz. Ulug' shoirlar ijodiga nisbatan bunday asossiz ayblovlarning qo'yilishi, ularni qattiq iztirobga solgani, tabiiy. Adabiyotshunos olim A. Qayumov Furqat lirkasi tadqiqiga bag'ishlangan "She'riyat jilolari" qo'llanmasida kuyunchaklik bilan shunday yozadi: "Agar ba'zi muvashshah yozgan nazmbozlar bu she'riy shakldan g'ayri adabiy, g'ayri axloqiy maqsadlarda istifoda etgan bo'lsalar, unday she'rlar adabiyot va ilm doirasidan tashqaridadirlar. Bunday hollarning Furqatdek ulug' mutafakkir shoirga hech qanday aloqasi yo'q!

Ha, shoir Furqat ijodi misolda aytildan bu fikrlarni Muqimiyy, Muhyi, Haziniy, Zavqiy kabi barcha ulug' shoirlar ijodiga nisbatan ham aytish mumkin.

### Foydalilanigan adabiyotlar

- 1.Jalolov A. O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining rivojlanish jarayoni. Filol.fan.dok... – Toshkent, 1993.
- 2.Madaminov A. Zavqiy. – Toshkent: Sharq, 2003.
- 3.Pardayev Q. "Al-Isloh" va XX asr boshlari o'zbek adabiyoti. – Toshkent: "Mahalla va oila", 2021.
- 4.Shayxzoda M. Asarlar. Olti tomlik. Beshinchchi tom. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1973.
- 5.Qayumov A. She'riyat jilolari. – Toshkent, "O'qituvchi", 1997.